# “Qo‘ng‘irot soda zavodi” MCHJ QKda “O`zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarining bosh muhandislari ishtirokida konferensiya o`tkazildi

// 01 November 2022 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kungirot-soda-zavodi-konferensiya




**“Qo‘ng‘irot soda zavodi” MCHJ QK**da “O`zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarining bosh muhandislari ishtirokida, ishlab chiqarish quvvatlaridan unumli foydalanish, ishlab chiqarish bo‘yicha muammolarni ko‘rib chiqish va ularni ijobiy hal etish, mahsulotlarning tannarxini tushirish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni hamkorlikda sifatli olib borish hamda erishilgan yutuqlar bo‘yicha tajriba almashinishni tashkil etish yuzasidan konferensiya bo`lib o`tdi.

Konferensiyada quyidagi muhim mavzular yuzasidan taqdimot va muhokamalar o`tkazildi:

- Mahsulotlarning tannarxini pasaytirish bo‘yicha olib borilayotgan tadbirlar natijadorligi hamda 2023-yilga ishlab chiqilgan dastur va bugungi kunda ularni amalga oshirish uchun zamin yaratish;
- Bir birlik mahsulot uchun asosiy xomashyo, materiallar va energiya resurslarining sarf me’yorlarini optimalashtirish, jumladan amaldagi sarflar miqdoriga yaqinlashtirish;
- Atrof muhit muhofazasi va ekologik tadbirlarning bajarilishi, asosiy mummoli nuqtalarni avtomatik

monitoring qilish tadbirlarini jadallashtirish.

“O`zkimyosanoat” AJ tizim korxonalarida muntazam o`tkaziladigan bu kabi konferensiyalar Jamiyatda faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning kimyo sanoatidagi ishlab chiqarish jarayonlariga oid muhim mavzularda o`zaro fikr va tajriba almashishlariga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sohaga oid dolzarb masalalarni hal etishda o`ziga xos muhokama maydoni vazifasini bajaradi.




Uzkimyosanoat
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26




**“O`zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati**